



THE INFLUENCE OF THE IDEA OF "PASHTUNISTAN" ON INTER-ETHNIC SOLIDARITY IN AFGHANISTAN

O. N. Abdurakhmanov

Doctoral student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Pashtunistan”, “ASIA-Plus”, “Pashtun Khanate”, “Durand Line”, “Pashtun country”, “Greater Pashtunistan”, “National Awami Party”.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article talks about the reasons for the emergence of the idea of “Pashtunistan” and its influence on the country’s internal politics. In addition, factors hindering the process of national unity in Afghanistan are analyzed.

“PUSHTUNISTON” G‘OYASINING AFG‘ONISTONDAGI ETNOSLARARO HAMJIHATLIKKA TA’SIRI

O. N. Abdurahmonov

Tayanch-doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tashkent, O‘zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Pushtuniston”, “ASIA-Plus”, “Pushtun xonligi”, “Dyurand chizig‘i”, “Buyuk Pushtuniston”, “Milliy Avom Partiyasi”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Pushtuniston” g‘oyasining paydo bo‘lish sabablari va uning mamlakat ichki siyosatiga ta’siri haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, Afg‘onistonda milliy birlik jarayoning to‘sinqinlik qiluvchi omillar tahlil qilingan.

ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ «ПУШТУНИСТАН» НА МЕЖЭТНИЧЕСКУЮ СОЛИДАРНОСТЬ В АФГАНИСТАНЕ

О. Н. Абдурахманов

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Пуштунистан», «АЗИЯ-Плюс», «Пуштунское ханство», «Линия Дюранда», «Большой Пуштунистан», «Национальная народная партия».

Аннотация: В данной статье говорится о причинах возникновения идеи «Паштунистана» и ее влиянии на внутреннюю политику страны. Кроме того, анализируются факторы, препятствующие процессу национального единства в Афганистане.

KIRISH

Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta'sir ko'rsatadigan, mintaqaga geosiyosiy xaritasida o'zgarishlar bo'lishiga olib keladigan muhim voqeа “Pushtuniston” g'oyasi hisoblanadi. “Pushtuniston” Afg'oniston va mintaqada yashovchi barcha pushtunlarni birlashtirib, mustaqil davlatini tashkil qilish g'oyasi hisoblanadi. “Pushtuniston” (پښتونستان) pushtu tildan “pushtunlar mamlakati” (yeri, vatani) deb tarjima qilinadi. Ushbu atama pushtunlar istiqomat qilib keladigan tarixiy hududlarni ham anglatadi. Taxminan III asrdan boshlab bu hudud “Afg'oniston” deb nomlangan [1].

ASOSIY QISM

Maqolada afg'onshunos olimlar va tadqiqotchilar xulosalariga, shuningdek, pushtu tilidagi ma'lumotlar, davriy nashrlar va internet manbaalariga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyotlar tahlilida “Pushtuniston” g'oyasining mamlakat ichki siyosatiga, milliy birlikka yerishish jarayoniga ta'siri o'r ganib chiqildi. Maqolada tarixiylik, event, kontent, qiyosiy hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi.

Pushtunlar o'z mustaqil davlatiga ega bo'lish istagida bo'lgan dunyodagi qadimiy ko'p sonli etnoslardan biridir. Ularning umumiyligi so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, taxminan 63 mln. gacha deb ko'rsatilmoqda [2]. Pushtunlar Afg'oniston aholisining 42-45 foizini (18,8 mln. ga yaqin), Pokiston aholisining 15 foizini (40 mlndan oshiq), shuningdek, Hindistonda, 3,2 mln, AQSHda 538 ming, Eronda 169 ming, Buyuk Britaniyada 100 ming yaqin pushtunlar istiqomat qiladi [3]. Shunisi ahamiyatga molikki, pushtunlarning o'z davlatini tashkil topish istagi nafaqat mamlakatda, balki bugungi kunda mintaqada ham katta o'zgarishlar yuz berish ehtimolini kuchaytirib yubormoqda.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, ba'zi olimlarning qarashicha pushtunlarning “Pushtuniston” davlatini tashkil etish g'oyasi “Dyurand chizig'i” dan so'ng paydo bo'limgan, aksincha, pushtunlarning mustaqil davlat barpo etish istagi uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, tojikistonlik afg'onshunos olim Homid Saidovning “ASIA-Plus” bilan interv'yusida “Har qanday davlatni bitta davlat tashkil etuvchi etnik guruh yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Afg'onistonni pushtunlar tashkil etgani to'g'ri, lekin bugungi Afg'onistonni emas.

Qayd etilganidek, 1747-yilda Ahmadshoh Durroniy Qandahor xonligiga asos solganida uning maqsadi Afg'oniston davlatini barpo etishni emas, aksincha, "Pushtun xonligi"ni barpo qilmoqchi edi. Afsuski, bu tarixiy nom hozirgi Pokiston hududida saqlanmagan"^[4], deb ta'kidlaydi. Shuningdek, S.Harrison 1747-yilda Ahmadshoh Durroniy tomonidan tuzilgan Afg'oniston davlatida pushtunlar katta mavqega ega edi. Bu pushtun qabilalari konfederatsiyasi bo'lib, pushtunlarni birlashtirish, ularning manfaatlari va yaxlitligini pushtun bo'lmanan raqiblardan himoya qilish maqsadida tashkil etilgan ligini ta'kidlaydi^[5]. Darhaqiqat, qariyb uch asrdan beri Afg'onistonda oliv hokimiyatga egalik qilib kelayotgan pushtunlarning mamlakatdagi boshqa etnoslarning huquq va erkinligini cheklash, pushtunlashtirish siyosatini olib borishi hamda pushtunlar davlatini tashkil qilish g'oyasi har doim mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Biroq, "Dyurand chizig'i" ushbu g'oyani amaliyotda sinab ko'rish harakatini tezlashtirishga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'lganligini alohida ta'kidlash o'rinnlidir.

Ma'lumki, Afg'oniston davlatchilik tarixining shakllanish jarayonida madaniyati, an'ana va urf-odati bir-biriga yaqin turli xil millat va etnos vakillari katta rol o'ynagan. Garchi, zamonaviy Afg'oniston davlatchiligining bunyodkorlari pushtunlar bo'lsa-da, afg'nistonlik tojiklar, hazoralar, o'zbeklar, aymoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, baluchlar, choraymoqlar, qizilboshlар, pashoiylar, pomiriylar, arablar, gujar, brahui va boshqa millatlarni davlatchilik tadrijidagi o'rnin inkor etib bo'lmaydi. Bu xususida, 1930-yillarning oxirida Kobul universiteti professori Najibulloh o'zining "Ariana yoki Afg'oniston" asarining so'zboshisida quyidagicha ta'kidlagan edi: Afg'oniston tarixida mamlakatdagi barcha millat va xalqlar "afg'onlar" bo'lib, "yagona afg'on xalqi"ni tashkil qilgan. Ilk va o'rta asrlarda (1747-yilda Afg'oniston davlati tashkil topgunga qadar) afg'on zaminida mavjud bo'lgan davlatlarning aholisi "afg'onlar" deb atalgan va ularning birqalikdagi sa'y-harakatlari bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyati katta sharafga ega bo'lgan^[6]. Biroq, pushtunlarda millatchilik hamda mustaqil davlat tuzish xohishi yuqori ekanligini alohida qayd etib o'tish lozim. Xususan, ularning "Pushtuniston" davlatini tuzish istagi mamlakatda pushtun millatchiligining kuchayishiga olib keldi. Misol uchun, Amir Abdurahmon pushtun davlatini tuzish maqsadida mamlakatdagi boshqa etnoslarni ham majburan pushtun an'analarini qabul qildirishga doir bir qator ishlarni amalga oshirdi. Xususan, pushtunlarga Afg'onistonning markaziy va shimolidagi eng unumdon yerlarni hadya qilib, o'sha hududlardagi tub aholining yerlarini talon-taroj qilishdi. Amirning bu siyosati mamlakat janubdagi pushtunlarning o'z yerlarini tark etib, shimoldagi va'da qilingan yerlarga ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa mamlakatdagi etnik-diniy ozchiliklarni qattiq xavotirga soldi. Amir Abdurahmonning Afg'onistonni pushtunlashtirish siyosati natijasida hazoralar bundan ham yomonroq azob chekishdi. Ya'ni, amir etnik guruhga ularning yerlarini

tortib olishdan tashqari katta soliq ham kiritdi. Hazorlar qo‘zg‘olon ko‘targanlarida hukmronlik qilib, ularni shafqatsizlarcha qirib tashladi va qullikka tortdi [7]. Bundan tashqari, G‘ulom Muhammad Farhod va pushtun ziyolilari 1966-yilda “Afg‘on millati” o‘ta millatchi, irqchi pushtun milliy guruhini tuzdilar, pushtu tilidan kengroq foydalanish, barcha “imperialistik” va yot ta’sirlarni yo‘q qilinishi, Pokiston hududining pushtunlar istiqomat qiladigan qismini Afg‘onistonga qo‘sib olinishi va Amudaryodan Hind daryosigacha bo‘lgan “Buyuk Pushtuniston”ning tashkil topishi tarafdoi edi. Biroq, bu harakat mamlakatda millatchilik tashviqoti tuzumni larzaga keltirish bilan birga, ayni paytda millatlararo nizolarni kuchaytirdi . Bundan tashqari, Muhammad Zohirshoh davrida ham Afg‘onistonda pashtunlarning suveren davlati – “Pushtuniston”ni yaratish masalasi faol ko‘tarila boshladi. Bu davlat tarkibiga Pokistonning pashtunlar yashovchi hududlari kirishi kerak edi. Chegara muammolari har ikki tomonning chegara hududlari ustidan kuchli nazorat mavjud emasligi tufayli murakkablashdi [8].

Qo‘sishimcha sifatida ta’kidlash o‘rinlikni, pushtunlarning oliy hokimiyatga egalik qilish, jamiyatda pushtunlarning mavqeyini boshqalardan ustun qo‘yish, pushtu tilini davlat tiliga aylantirish hokimiyat boshqaruvida “Pushtunvali” kodeksi tamoyillaridan foydalanishi tinchlik yo‘lidagi eng muhim shartlardan biri bo‘lgan mamlakatdagi etnoslar o‘rtasida hamjihatlikka erishishiga katta to‘siq bo‘lmoqda. Alovida qayd etish lozimki, afg‘on zaminida yuz beradigan etnik voqealar “domino effekti” misol yuz beradi. Mamlakatda sodir bo‘lgan etnolaring nizolar va konfliktlar ikkinchi davlatga, umuman Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasiga ta’sir qiladi.

Shu o‘rinda, pushtunlar davlatini tuzish borasida mamlakat ziyolilari orasida ham turliqa qarashlar shaklanishiga olib kelganligini alohida qayd etib o‘tish o‘rinlidir. Xususan, ulardan ba’zilari “pushtuniston” g‘oyasini qo‘llab-quvvatlasa, ayrimlari buni hukmron elitaning kamsitish siyosati sifatida baholadi, Yana boshqa toifa vakillari esa buni yana mamlakatning ichki siyosati uchun ahamiyatsiz deb hisobladilar va buning o‘rniga bu masalani hukmron sinfning kuchini oshirish va demokratik jarayonni sabotaj qilish vositasi sifatida ko‘rishdi [9]. Ammo, ayrim pushtunlar orasida o‘zlarini tashqi kuchlar tomonidan mustaqil davlat tashkil qilish huquqida mahrum etilgan deb hisoblaydigan qatlam ham mavjud. Masalan, Ahmadjon Tani pushtunlar o‘z tillarida gapirish, yozish va o‘rganish huquqiga ega. Shuningdek, ular demokratik tuzumga ega bo‘lishi, dunyoning boshqa xalqlari kabi yagona mustaqil davlat sifatida mintaqadagi boshqa xalqlar bilan tinch-totuv yashash huquqiga ega. Pushtunlarga o‘z strategik maqsadlariga erishish uchun ba’zi ittifoqchilar kerakligi shubhasiz. Bu ittifoqlar pushtunlar bilan umumiyl manfaatlar nuqtayi nazaridan belgilanishi mumkin. Shubha yo‘qli, Tehron, Panjob va Kobuldagagi ayrim hukmron doiralar hech qachon pushtunlarni hozirgi og‘ir ahvoldan qutqarishni istamaydilar va bu yo‘lda zarur to‘siqlar yaratmoqdalar. Shu bois,

pushtunlar o‘zlarini mustahkamlash uchun mintaqa va dunyoda o‘z ittifoqchilari topishlari kerak ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bu esa pushtunlar o‘zlarini o‘zgalar tomonidan mustaqillikdan, yerlaridan hamda haq-huquqlaridan mhrum etilgan xalq deb hisoblashidan dalolat beradi.

Qayd etish joizki, pushtunlarning o‘z davlatlarini barpo etish g‘oyasi Afg‘oniston suvirentitetiga, hududiy yaxlitligiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Masalan, ehtimoliy pushtunlar mamlakatining tashkil topishi mamlakatdagi boshqa ko‘p sonli etnoslarnig ham o‘z davlatlarnini barpo etish istagini jonlanishiga olib kelishi ehtimoli juda yuqori. Bunga misol sifatida balujlar, hazoralarni keltirib o‘tish mumkin. Jumladan, baluj aholisi taxminan 56 mlndan ortiq kishini tashkil etadi[10]. Ularning katta qismi Pokiston, Eron va Afg‘oniston hududiga to‘g‘ri keladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra balujlar Afg‘oniston aholisining taxminan 2 foizini tashkil qiladi. Ular afg‘on jamiyatining bir qismi bo‘lib, ularning aksariyati Pokiston chegaralarida, qolganlari esa Eron hududlarida yashaydilar. Afg‘oniston balujlari janubi-g‘arbiy va janubdagagi hududlarda, jumladan Hilmand va Faryob viloyatlarida yashaydilar. Balujlar Afg‘oniston Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan “milliy” etnik ozchiliklardan biridir. Shunga ko‘ra, ular Afg‘oniston fuqarolariga berilgan barcha huquqlarga ega. Shunga qaramay, baluj qabila rahbarlari o‘zlarining tillariga bo‘lgan huquqlari hukumat tomonidan himoya qilinmaganligi va farzandlari ona tilida ta’lim olmasliklari sababli hukumatga nisbatan o‘z e’tirozlarini bildirib kelishadi[11]. Masalaning nozik jihat shundaki, Pokiston Islom Respublikasi tashkil etilgandan so‘ng, pushtunlar uzoq yillardan beri balujlarni 1970-yildan keyin viloyatda baluj va pushtun sub-millatchi partiyalari to‘rtta yangi koalitsion hukumat tuzdilar. Baluj va pushtunlar “Milliy Avom Partiyasi” (National Awami Party) siyosiy partiyasini tuzib, o‘zlarining eski birligini saqlab qolgan holda yagona birlik tizimiga qarshi birgalikda kurashdilar va etnik asosda yangi viloyatlar tashkil etishni talab qildilar[12]. Ularning hech qanday qarama-qarshiliksiz yashashining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: Birinchidan, baluj va pushtun hududlari tabiiy releflar orqali keskin ajratilgan. Ikkinchidan, har ikki xalq ham o‘xhash qabilaviy tuzumda yashaydilar va o‘zlarining madaniy o‘ziga xosligi bilan faxrlanadilar. Shuningdek, ularning parchalanib ketishi qismatida ham o‘xhashlik mavjud. Uchinchidan, pushtunlar va balujlar tashqi kuchlar tomonidan o‘zlariga nisbatan sodir etilgan vahshiylit borasida o‘xhash tarix va xotiralarga ega.

Masalaning nozik jihat shuki, hozirgi Afg‘oniston xaritasini tubdan o‘zgarishiga olib keluvchi ehtimoliy mustaqillik harakatlarini qo‘llab-quvvatlovchi tashqi kuchlar mavjud. Masalan, 2006-yilda amerikalik iste’fodagi polkovnik Ralf Peters g‘ayritabiyy vujudga kelgan Pokistonning balujlar yashaydigan hududida “Ozod Balujiston” davlatini o‘z ichiga oluvchi “Yangi Yaqin Sharq” konsepsiyasini ishlab chiqqanligi ham e’tiborga molikdir[13].

XULOSA.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, “Pushtuniston” “Dyurand chizig‘i” belgilanishidan oldin ham mavjud bo‘lgan g‘oyadir. Bizningcha, “Pushtuniston” g‘oyasi Afg‘onistonda milliy birlik istiqboliga jiddiy ta’sir o‘tkazuvchi omillardan biridir. Mazkur g‘oyaning ehtimoliy amalga oshishi nafaqat Afg‘onistondag‘i boshqa etnoslarning manfaatlariiga ta’sir o‘tkazadi balki, mamlakatni hududiy yaxlitligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Jumladan, “Pushtuniston” g‘oyasi afg‘onistonlik baluylarni “Ozod Balujiston” davlatini barpo etish istagini jonlanishiga turtki bo‘lish ehtimoli mavjud. Bu esa, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadi hamda mintaqaga geosiyosiy xaritasida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мария Кича. Афганистан. Подлинная история страны-легенды. Москва. 2023. – 454 с.
2. The World factbook. (2021). Afghanistan. <https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/afghanistan/>
3. Sabahuddin Abdul. History of Afghanistan. Global Vision Publishing. 2008. – P. 15.
4. Abdulloev R. Influence of the ethnic factor on the formation of Afghan Statehood. Central Asia and The Caucasus. Volume 15 Issue 1 2014. –137 p.
5. Ali Frishta. (2015). Afghanistan: The rise of ethnic consciousness through history; a comprehensive overview of the origin of the Afghan conflict. Leibniz Institute for Social Sciences. –14 p.
6. Лалетин Ю.П. Этносы в Афганистане: Напряженность взаимоотношений. – 23 с.
7. Туляганова Н.У. Law and (2004) Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан. Монография. – С.159.
8. Faridullah Bezhān. The Pashtunistan Issue and Politics in Afghanistan, 1947-1952. Middle East Journal, Spring 2014, Vol. 68, No. 2, pp. 197-209.
9. Abdurahmonov O.N. Afg‘oniston pushtunlari. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021. –104 b.
10. Nadeem F. Paracha. (2014). The first left. <https://www.dawn.com/news/1142900>
11. Ralf P. (June 1st, 2006) Blood borders: How a better Middle East would look. Retrieved from <http://armedforcesjournal.com/blood-borders>
12. Baloch population scattered around the world. <https://thebalochistanpost.net/2023/02/baloch-population-scattered-around-the-world/>